

MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA E'TIQOD MASALALARI

Aliyeva Dilshoda

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Shuhratova Mahliyo

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkman klassik adabiyotining asoschisi Maxtumquli hayoti va she'riyati haqida ma'lumotlar berilgan. Maxtumquli she'rlari turkona ruhiyatda yozilganligi, she'riy san'atlar hamda adabiy vositalarni o'zida mujassam etganligi hamda e'tiqot masalasini birinchi o'ringa qo'yganligi bilan ahamiyatlidir.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и поэзии Махтумкули, основоположника туркменской классической литературы. Стихи Махтумкули ценны тем, что написаны в тюркском духе, воплощают поэтические и литературные средства и ставят во главу угла тему веры.

Abstract: This article provides information about the life and poetry of Makhtumkuli, the founder of Turkmen classical literature. Makhtumkuli's poems are significant because they are written in a Turkic spirit, embody poetic arts and literary means, and prioritize the issue of faith.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar adabiyoti, Maxtumquli ijodi, Maxtumquli she'rlarining g'oyaviy tasnifi, xalqona ruh, turkman tili rivoji, Maxtumquli ijodida e'tiqot masalasi.

Ключевые слова: Литература тюркских народов, творчество Махтумкули, идеологическая классификация поэм Махтумкули, народный дух, развитие туркменского языка, вопрос веры в творчестве Махтумкули.

Keywords: Literature of the Turkic peoples, Makhtumkuli's work, ideological classification of Makhtumkuli's poems, folk spirit, development of the Turkmen language, the issue of faith in Makhtumkuli's work.

Turkiy xalqlar adabiyotining asoschisi Ozodiyning o'g'li Maxtumdul Eron shohlari hukmronligi davrida yashab, ijod etadi. Maxtumdul xalqona va falsafiy ruhdagi she'rlari bilan nafaqat turkman xalqining, balki butun turkiy xalqlarning ma'naviy merosiga beqiyos hissa qo'shgan olimdir. Uning ijodi o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini aks ettiradi va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Maxtumdul Turkmanistonning Etrek daryosi bo'yida joylashgan Hajig'ovshan qishlog'ida tug'ilgan. Otasi - o'z davrining taniqli shoiri va ma'rifatparvari bo'lgan. Maxtumdul dastlab otasidan saboq olib, keyinchalik Buxoro, Xiva va Shirvon madrasalarida tahsil olgan. U arab, fors va turkiy tillarni mukammal bilgan, Sharq adabiyotining buyuk mutafakkirlari - Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diylarning asarlarini chuqur o'rgangan. Shoir umrining katta qismini xalq orasida o'tkazgan. U o'z she'rlarida xalq dardini, orzu-umidlarini, birligi va erkinligi g'oyalarini kuylagan. Maxtumdul umrining so'nggi yillarini Vatanining tinchligi va birligi yo'lida o'tgan hayoti bilan yakunlagan.

Maxtumdul o'z ijodida turkman adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan. U ona tili — turkman tilida yozgan va shu orqali xalq tili, xalq ruhini she'riyatga olib kirgan. Uning asarlarida xalqona ohang, diniy-falsafiy fikr, insonparvarlik va Vatan muhabbati uyg'unlashgan.

Maxtumdul ijodiga teran nazar tashlar ekanmiz, uning asarlarida e'tiqodning yuksak ildizlarini ko'rishimiz mumkin.

Qodir Jabbor, sendan tilagim ko'pdir,
Sen meni nomardga muhtoj aylama,
Xazinangdan bergil mening rizqimni,
Bandangni bandangga muhtoj aylama.

Shoirning "Muhtoj aylama" radifli g'azalida talmeh san'atidan unumli foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu g'azalda Qodir Jabbor deya yaratganga iltijo qilinganini ko'rishimiz mumkin. Shoir she'rlarida o'zining aql-zakovati, islomiy muhabbati, quvonch-u qayg'ularini aks ettirgan. Maxtumdul she'riyatida shoirning qalb ko'zlari o'z aksini topgan. Ko'pgina she'rlarida Qur'oni

karim va hadisi shariflar ma'nolari sharhlab o'tilgan. Maxtumqulining siyosiy qarashlari ham sog'lom e'tiqod tamoyillariga tayangan. Davr hukmdori Ahmad shohga bag'ishlangan she'rida shoir : "Sen dinni rivojlantir. Shohlarning shohisan, islomning quvvatisan" deydi. Mana shu birgina fikrning o'zi ham Maxtumqulining e'tiqodiy qudratini ochib beradi.

Xulosa. Maxtumquli Firog'iy turkiy xalqlar adabiy merosida o'ziga xos o'rin egallagan ulug' shoir va mutafakkirdir. Uning she'rlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, xalqni birlik, ma'naviyat va insoniylik sari chorlab turadi. Shoirning "Birlik bo'lmasa, el bo'lmas" degan hikmatli so'zi asrlar osha dolzarbligini saqlab qolgan. Maxtumquli ijodini o'rganish orqali har bir inson o'zida e'tiqod masalasida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shubhasizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. Toshkent. O'zbekiston KP MK nashriyoti. 1976, 156-bet.
2. Maxtumquli Firog'iy. Saylanma. Toshkent "O'zbekiston" 2008
3. Maxtumquli. She'rlar. Toshkent. T. 1979.
4. Maxtumquli "Dunyo o'tib boradir" . Yangi asr avlodi. 1990.
5. Quronboyev K. Maxtumquli-ilhom chashmasi. Toshkent. "Tafakkur" nashriyoti, 2011
6. Qosimov, A., Hamroqulov, A., 2019. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent. Akademyashr.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi
8. <https://www.uzbekembasy.in/turkman-adabiyoti/?lang=uz>
9. <https://lex.uz.docs/-6806311>